



1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 22-iyul, seshanba,
83 (24.109)-son

O'zbek xalq
maqoli

Elni
sevsang,
elcha
gapir

Zarafshon



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

Prezident qaroriga ko'ra



Mo'g'ulistondan mayda shoxli chorva mollari keltiriladi

Davlatimiz rahbarining joriy yil 24-25-iyun kunlari Mo'g'ulistonga davlat tashrifi davomida erishilgan kelishuvlar doirasida ikki mamlakat 2025-2026-yillarda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasida hamkorlik qiladi. Bu haqda Prezidentimizning joriy yil 17-iyulda qabul qilingan "Mo'g'ulistonga oliy darajadagi tashrif davomida qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilandi.

Unga ko'ra, Mo'g'ulistondan 100 ming bosh mayda shoxli mollar olib kelinib, mahalliy sharoitda naslchilik-seleksiya ishlari yordamida ko'paytirish orqali 2029-yil yakuniga qadar ularning soni 1 million boshga yetkaziladi. Bosqichma-bosqich jun va kashemirni qayta ishlash hamda tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi.

Meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlarining eksporti har yili oshirilib, 10 barobarga ko'paytiriladi.

2025-yil 1-avgustdan 2027-yil 31-dekabr gacha Mo'g'ulistondan mayda shoxli mollarni O'zbekistonga import qilishda tadbirkorlik subyektlariga:

- havo transportida tashish xarajatlarning 50 foizi davlat budjeti hisobidan kompensatsiya qilinadi.

- qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash muddatini foizlar hisoblanmagan holda to'lov ta'minotisiz kechiktirib to'lash imkoniyati beriladi.

Yaylov yerlaridan samarali foydalanishni tashkil etish va ularni muhofaza qilish, qorako'lchilik, teri va jun sanoati sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha respublika komissiyasi qaroriga asosan Qoraqalpog'iston, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand va Surxondaryo yaylov xo'jaliklari balansidagi yerlar Mo'g'ulistondan mayda shoxli mollarni O'zbekistonga kamida 1000 bosh import qilgan tadbirkorlik subyektlariga;

- naslchilik va seleksiya ishlari rivojlantirish orqali import qilingan mayda shoxli mollarning bosh sonini ko'paytirish;

- yaylovlarda ozuqabop o'simlik turlaridan bo'lgan izen, teresken, quyrovuq, kamforosma, cho'g'on, erkak o't, oq (qora) saksovl ekilishini

tashkil qilish shartlari asosida to'g'ridan-to'g'ri ijaraga beriladi.

Meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilish ishlarini tashkil qilish maqsadida 2025-2026-yillarda Mo'g'ulistonning yirik savdo markazlarida "O'zbekiston mahsulotlari" yarmarkasi tashkil etiladi hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari O'zbekistondan eksport qilinib, kelgusida boshqa davlatlarga reeksporti amalga oshiriladi. Mo'g'ulistonda O'zbekiston savdo uyi va Ulan-Bator shahridagi yirik savdo maydonlarida O'zbekiston mahsulotlari stendi tashkil etiladi.

2026-yil yakunigacha Mo'g'ulistondan import qilingan mayda shoxli mollardan olinadigan junni qayta ishlash bo'yicha mahalliy mutaxassislarning Mo'g'ulistonning kashemir ishlab chiqarish va to'qimachilik korxonalarida malakasini oshirgan holda junni qayta ishlash korxonasi tashkil etiladi. Keyingi yil yakuniga qadar Mo'g'ulistonga sovuqqa chidamli va serhosil 10 ming dona meva ko'chatlari tomchilatib sug'orish texnologiyalari bilan birga yetkaziladi va 15 gektar maydonda zamonaviy sanoatlashgan intensiv bog' tashkil etishga ko'maklashiladi.

2026/2027-o'quv yilidan Toshkent davlat agrar universiteti va Mo'g'uliston tabiiy fanlar universiteti o'rtasida magistratura mutaxassislilari bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlari joriy etiladi.

Mo'g'ulistonda 2026-yilda jami 3 ming gektar maydonda, shundan Andijon, Namangan, Farg'ona, Toshkent va Samarqand viloyatlari dehqonlari tomonidan 200 gektardan pomidor, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari dehqonlari tomonidan 300 gektardan tarvuz yetishtirish yo'lga qo'yiladi.



«SAMARQAND – DUSHANBE»

aviaqatnovi qayta tiklandi

Samarqand xalqaro aeroportiga Dushanbedan havo layneri kelib qo'ndi.

Shu munosabat bilan o'tkazilgan tadbirda Tojikiston Respublikasining O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Abdujabbor Rahmonzoda, viloyat hokimining o'rinbosari Rustam Qobilov hamda jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

- "Toshkent – Dushanbe" va "Samarqand – Dushanbe" yo'nalishlari bo'yicha aviaqatnovlarning yo'lga qo'yilishi qardosh xalqlar

do'stligini yanada mustahkamlash, turizmni rivojlantirishga katta hissa qo'shadi, - dedi Abdujabbor Rahmonzoda. – Ayniqsa, xorijlik mehmonlar Tojikistonga tashrif buyurganida Samarqand, Buxoro, Xorazm, Xiva kabi tarixiy shaharlarni ziyorat qilishni xohlaydi. Shu paytgacha sayyohlar uchun bu istakni amalga oshirish imkoniyati bo'lmagandi.

- Mazkur yo'nalishni tashkil etish uchun ikki yil vaqt ketdi, - deydi "Air Marakanda" aviakompaniyasi direktori o'rinbosari D.Martinenko. - Aviareyslar haftasiga ikki marta — payshanba va yakshanba kunlari amalga oshiriladi.

B.MUSTANOV.

Sportimiz yulduzlari

Taxmina Ikromova Universiada o'yinlarini 4 ta medal bilan yakunladi.

Germaniyada o'tkazilayotgan XXXII Butunjahon yozgi Universiada o'yinlarining badiiy gimnastika bahslari yakunlandi.

Musobaqada yurtimiz sharafiga himoya qilgan samarqandlik badiiy gimnastikachi Taxmina Ikromova halqa va tasma mashqlarida oltin, bulava hamda ko'pkurash bahslarida kumush medallarini qo'lga kiritdi.



Xitoyning Szuni shahrida boks bo'yicha kattalar o'rtasida xalqaro turnir bo'lib o'tdi. Ushbu musobaqada ishtirokchi Nigina O'ktamova kumush medalga sazovor bo'ldi.

Samarqand shahridagi "Mo'jiza" amfiteatrida xalqaro professional boks musobaqasi bo'lib o'tdi.

Unda O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston bokschilari 13 vaznda jang o'tkazdi.

Musobaqada samarqandlik bokschilardan Fayzulla Narzullayev, Akobir Mirzayev, Egamberdi Mahkamov va Zafarjon Hasanov ishtirok etdi.



Bu yil grant tanlovlarida g'oliblikni qo'lgan kiritgan nodavlat notijorat tashkilotlari loyihalariga e'tibor qaratsangiz, barchasi aniq maqsad va rejalarni ko'zda tutganiga amin bo'lasiz. Misol uchun, qaysidir hududda aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash, elektrda muammosi bo'lgan mahallada transformatorni almashtirish, bolalar maydonchasi qurish, salomatligida nuqsoni bo'lgan bolalarning xorijda davolanishi uchun sharoit yaratish kabi, manzilli ishlar amalga oshiradi. Loyihalardagi bu kabi o'zgarishlar bejiz emas. Barchasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustda qabul qilingan "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonidan so'ng boshlandi.

Hududlarda mavjud muammolarni fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda hal etish, ularning tashabbuslarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish maqsadida Parlament komissiyasi a'zolari va Oliy Majlis huzuridagi fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlovchi Jamoat fondi vakillaridan iborat ishchi guruh tomonidan joriy yilda respublikaning barcha hududlarida ijtimoiy ahamiyatga ega muammolar o'rganilib, Parlament komissiyasi tomonidan hududlar kesimida ushbu muammolar yechimiga qaratilgan davlat granti tanlovi e'lon qilingan edi.

Grant aniq muammolarni hal etish uchun yo'naltirildi



Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi tomonidan e'lon qilingan aholi bandligini ta'minlash, ijtimoiy muhofaza va sog'liqni saqlash, atrof-muhit va sanitar-gigiyenik holatni yaxshilash, ta'lim, madaniyat va sportni rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, korrupsiyaga qarshi kurashish kabi yo'nalishlarni qamrab olgan 14 ta grant tanloviga fuqarolik jamiyati institutlaridan

ngo.gov.uz platformasi orqali 521 ta, Jamoat fondining hududiy bo'linmalari tomonidan e'lon qilingan 14 ta grant tanloviga 329 ta loyiha taqdim etilgan.

Samarqand viloyati bo'yicha esa 50 dan ortiq NNT va fuqarolik jamiyati institutlari ishtirok etgan tanlovda 15 ta NNT va fuqarolik jamiyati institutlari g'olib deb topildi.

Ta'kidlash joiz, grant tanloviga loyiha taqdim etish, ularni Parlament komissiyasi tomonidan baholash jarayonlari ilk marta raqamlashgan holda shaffof tizimda ngo.gov.uz platformasida amalga oshirildi. Ya'ni, ushbu jarayon to'liq elektron tarzda amalga oshirildi. Ilgari tanlovga hujjatlar qog'oz shaklida taqdim etilar, bu holat vaqt nuqtai nazaridan turli noqulayliklarni keltirib chiqarardi.

Baholash natijalaridan kelib chiqib, Parlament komissiyasi 28 ta tanlovning 166 ta yo'nalishi bo'yicha 172 ta loyihani g'olib deb topdi va ushbu loyihalarga 18 milliard so'mga yaqin mablag' yo'naltirildi.

Samarqandda esa 2 ta tanlovning 15 ta yo'nalishi bo'yicha 15 ta loyiha g'olib deb topildi va ushbu loyihalarga 1 milliard 432 million so'mga yaqin mablag' ajratiladi. Tanlov g'oliblariga yaqindan maxsus sertifikatlar taqdim etildi.

Joriy yildagi grant tanlovining yana bir muhim tomoni shundaki, loyihalar hududlar kesimida mutanosib ravishda taqsimlanmagan va bitta loyiha 200 million so'mgacha moliyalashtirilmogda. Ya'ni, loyihalar mavzu ko'lami va ishlarning darajasi qarab moliyalashtiriladi. Qolaversa, ularni amalga oshirishda davlat tashkilotlari bilan ham bevosita hamkorlik ko'zda tutilgan.

Grant tanlovida g'olib bo'lgan tashkilotlar bilan shartnomalar imzolandi va loyihalar ijrosiga start berildi.

Doston MALIKOV,

Oliy Majlis huzuridagi fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi viloyat bo'limi boshlig'i.

“Adolat”chilar saylovchilari oldida hisobot bermoqda

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi va “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida”gi Qonunlarda deputat saylovchilar oldida hisobdor ekanligi belgilangan.

Xususan, qonunga ko‘ra, “deputat vaqti-vaqti bilan, lekin yiliga kamida to‘rt marta saylovchilarga o‘z faoliyati to‘g‘risida axborot beradi”.

Qonunchilikdagi bu norma deputatning saylovchilari oldidagi mas‘uliyatini va hisobdorligini belgilash barobarida aholining xabardorligini kuchaytirish va pirovardida vakillik organlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan saylangan deputatlar shu kunlarda ana shu tahlil asosida birinchi yarim yillik yakunlari bo‘yicha o‘z saylovchilari oldida hisobot berib, shu asosda galdagi vazifa va rejalarni aholi ishtirokida belgilab o‘lmoqda.

“Deputat bilan yuzma-yuz” loyihasi doirasida o‘tkazilayotgan tadbirlarda viloyat Kengashi bilan birga shahar va tuman Kengashlariga saylangan vakillarimiz ham ishtirok etmoqda.

- Saylovchi va deputat o‘rtasidagi munosabat aslida o‘zaro ishonch, hisobdorlik va javobgarlikka asoslanishi kerak, - deydi xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati Nilufar Ja‘farova. - Xalqning ishonchi tufayli vakilga aylangan kishi nafaqat qaror qabul qilish, balki jamiyatdagi dolzarb muammolarga yechim topish, fuqarolar taklif va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashda ham birdek faol bo‘lishi kerak.

Deputatning saylovchilar bilan o‘tkazgan hiso-

bot-uchrashuvida Urgut tibbiyot kolleji oldida piyodalar yo‘lakchasini chizish, “Mergancha” mahallasida yashovchi 3 kishiga nogironlik aravachalarini olib berish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning 45 tasini bir martalik oziq-ovqat to‘plami bilan ta‘minlash ishlari amalga oshirilgani qayd etildi. Shuningdek, saylovchilar talabi asosida deputat tashabbusi bilan tumandagi Jozmon mahallasida ta‘mirtalab yo‘lining 200 metr qismiga asfalt yotqizilgan, Kamongaron mahallasidan ehtiyojmand 2 ta oilaning uyini ta‘mirlashga amaliy yordam ko‘rsatilgan.

Deputat mahalliy budjet mablag‘lari va homiylik doirasidagi bunday yumushlardan tashqari partiya loyihalari doirasida olib borgan targ‘ibot-tashviqot ishlari bo‘yicha ham ma‘lumot berdi. Shundan so‘ng deputat aholi tomonidan infratuzilma, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, elektr ta‘minoti, yo‘l harakati kabi sohalarida ko‘tarilgan muammolarni tingladi. Murojaatlar ro‘yxatga olinib, ularning har biri bo‘yicha zarur chora-tadbirlar ko‘rilishi belgilandi.

Narpay tumanidagi uchrashuvda viloyat Kengashi deputati Mavlon Boboxonov ham amalga oshirgan ishlari bilan bir qatorda ayni paytda “Adolat” SDP tomonidan amalga oshirilayotgan “Biz odam savdosiga qarshimiz” oyligi doirasida jamiyatni bu tahlilali holatga nisbatan hushyor va mas‘uliyatli bo‘lishga chaqirdi. Deputatlik burchi har bir saylovchi uchun doim ochiq bo‘lish, ularning ovozi eшитish va amaliy harakat bilan javob berishdan iborat ekanini qayd etdi.

Uchrashuv davomida aholi tomonidan ish o‘rinlari yaratish, ichki yo‘llar ta‘miri, yoshlar bandligi, ijtimoiy yordam va sog‘liqni saqlash sohalarida bir qator murojaatlar bildirildi. Mavlon Boboxonov bu masalalarni nazoratga olib, ular yuzasidan aniq choralar ko‘rilishini qayd etdi.

Gulnafisa ABDIMURODOVA,
“Adolat” SDP viloyat kengashi matbuot kotibi.

Jomboy tumanida xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlari hamda kotibiyat mutaxassislari ishtirokida “Mahalliy kengashlar faoliyatini namunali tashkil etishning ustuvor yo‘nalishlari: muammo va yechimlar” mavzusida seminar o‘tkazildi.

Namunali Kengash qanday bo‘ladi?



Unda Oliy Majlis Senatining fan, ta‘lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi raisi Bahrom Abdullayev, xalq deputatlari viloyat Kengashi raisi Shuhrat Negmatov ishtirok etdi.

Qayd etilganidek, bugungi globallashuv va boshqaruv tizimlarini demokratlashtirish sharoitida mahalliy hokimiyat organlarining roli yanada oshib bormoqda.

Mahalliy Kengashlar – bu aholining manfaatlarini ifodalovchi, hududiy muammolarni hal etishda bevosita ishtirok etuvchi vakillik organi bo‘lib, ular orqali davlat boshqaruvi “quyi bo‘g‘in” darajasida hayotga tatbiq etiladi. Mahalliy kengashlar faoliyatining samarali tashkil etilishi nafaqat hududlar, balki mam-lakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bois ularning faoliyatini namunali tashkil etish, mavjud muammolarni aniqlash va samarali yechimlar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Mahalliy Kengashlar faoliyatini namunaviy tashkil etishda aholi bilan doimiy muloqotni ta‘minlash, xalq vakillarining nazorat funksiyasini mustahkamlash, shaffoflik va hisobdorlikni ta‘minlash masalalariga etibor berish lozim.

Shu sabab seminar ishtirokchilari dastlab Jomboy tuman Kengashining o‘tgan davrdagi faoliyati, jumladan, doimiy komissiyalarning ish yuritish tartibi va samaradorligi bilan tanishishdi. Tuman kengashining bu boradagi ilg‘or tajribasi komissiya raislari tomonidan amaliy misollar asosida tushuntirildi.

Ta‘kidlanishicha, xalq deputatlari Jomboy tuman Kengashida 25 nafar deputat va kotibiyatda 2 nafar bosh mutaxassis faoliyat olib bormoqda.

Kengash tomonidan shu kungacha 10

ta sessiya o‘tkazilib, 76 ta masala ko‘rib chiqilgan. Jumladan, 22 marotaba hisobot, 5 marta axborot tinglangan, 5 marta vakolat doirasidagi qarorlar va 8 marta tuman hokimi qarorlari tasdiqlangan. Shuningdek, 1 marta tuman hokimi qarori bekor qilingan va 35 marta boshqa turdagi qarorlar tasdiqlanib, qaror qabul qilingan.

Xalq deputatlari Jomboy tuman Kengashi deputatlari tomonidan o‘z saylov okrugidagi saylovchilar bilan 42 marta uchrashuv o‘tkazilgan. Uchrashuvlar natijasida deputatlar tomonidan saylovchilarni qiynab kelayotgan 84 ta muammo ro‘yxatga olingan. Ularning 6 tasiga tushuntirish va huquqiy maslahat berilib, 78 ta murojaatda ko‘tarilgan masala ijobiy hal qilingan.

Mahalliy kengashlar faoliyatini namunaviy tashkil etish davlat boshqaruvidagi ochiq-lik, fuqarolar bilan muloqot va manfaatlar muvozanatini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Ularning salohiyatini to‘liq namoyon etish uchun huquqiy, moliyaviy, tashkiliy va axborot sohalarida tizimli islohotlar amalga oshirilishi lozim. Shunda kengashlar joylarda xalq vakillari uyushmasi sifatida o‘z vazifasini samarali bajaradi.

Seminar davomida Senat a‘zolari, deputatlar va kotibiyat xodimlari mahalliy kengashlar faoliyatini takomillashtirish, ularning aholiga yanada yaqin bo‘lishini ta‘minlash hamda nazorat funksiyalarini kuchaytirish borasida o‘z fikr va mulohazalarini bildirishdi.

Tadbir doirasida “mahalla yetilgisi” hamda deputatlar hamkorligida Tut mahallasida amalga oshirilgan ishlar taqdimoti o‘tkazildi.

Shuningdek, tadbir so‘ngida mahalliy kengashlar faoliyatini samarali tashkil etishga oid ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha taklif va tavsiyalar bildirildi.

IT markazlar yoshlarga nimani o‘rgatyapti?

Yoshlarni zamonaviy ilm-fanga qiziqtirish, ularni IT sohasiga yo‘naltirish maqsadida 2021-yilda Payariq tumanida IT markazi ochilgan. Markazga uchta xona ajratilgan bo‘lib, birida 5-10 yoshli bolalar uchun mental arifmetika o‘rgatilsa, qolgan ikki xonada dasturlash, dizayn, grafika kabi yo‘nalishlarda dars o‘tiladi.



- Markazga asosan maktab yoshidagi bolalar keladi, - deydi markaz menejeri Maqsd Mamirov. - Ular uch oydan olti oygacha o‘qitiladi. Dastlab o‘quvchilarga kompyuter savodxonligi o‘rgatiladi, so‘ngra veb dasturlash, mobil ilovalar yaratish, veb dizayn, grafik dizayn kabi yo‘nalishlarda darslar olib boriladi. Darslarimiz uchun bolalarning yoshiga qarab 250-300 ming so‘mgacha to‘lov belgilangan. Ayni kunda yuzdan ortiq bola markazimizga qatnaydi. Darslarimiz ertalab soat 08:00 dan 17:00 gacha davom etadi. Ular haftada uch kun ikki soatdan keladi. O‘quvchilarning ichida o‘n nafarga yaqini kam ta‘minlangan oila farzandlari bo‘lib, ularni bepul o‘qitimiz.

Markazni tamomlaganlar IT sohasida mustaqil daromad topa boshlaydi. Hozir yozgi mavsumda o‘quvchilar biroz kamaygan. Yangi o‘quv yili boshlanishi bilan markazimizga qatnovchilar ko‘paydi. Ayrimlar 300 ming so‘mlik to‘lovdan qochib, darslarni internetdan sotib olmoqchi bo‘ladi. Ammo ular biz o‘tadigan darslarni internetdan 3 million so‘mga ham sotib olo olmaydi. Sotib olganlariga ham darslarni tushuntirib beradigan o‘qituvchi kerak. O‘zlari mustaqil o‘zlashtirib ketolmaydi. Markaz yoshlarga IT sohasida boshlang‘ich bilim va ko‘nikma beradi.

- Men IT markazida bolalarga mental arifmetikadan dars beraman, - deydi o‘qituvchi Iroda Temirova. - Bolalar haftada uch kun ikki soatdan mental arifmetikani o‘rganadi. Ularning yoshi-

ga qarab 100-130 ming so‘m atrofida to‘lov joriy etilgan. Matematikaga qiziquvchi bolalar mental arifmetikani qisqa muddatda o‘zlashtirib oladi.

Mental arifmetika to‘garagiga qatnovchi bolalarga qo‘shish va ayirishdan biroz savol-javob qildik. Ular haqiqatda ham sonlarni tezlik bilan hisoblayapti. Ba‘zilari hali maktab yoshiga yetmagan bolalar bo‘lib, hisob-kitobni yaxshi o‘zlashtirib olibdi.

IT markaziga yigirmata kompyuter berilgan bo‘lib, yoshlar o‘zlariga topshirilgan vazifalarni bajarishyapti. Kimdir dizayn bilan shug‘ullanyapti, kimdir kompyuter dasturlarini o‘rganyapti. Ularning ayrimlarini suhbatga tortdik.

- IT markaziga shu yilning mart oyidan boshlab kelyapman, - deydi tumandagi 24-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining 6-sinf o‘quvchisi Behruz Shakarboyev. - Shu kungacha kompyuter savodxonligini o‘rganib bo‘ldim, endi dizaynerlikni o‘rganyapman. Hozir futbolka logotip yasayapman. Katta bo‘lsam, dasturchi bo‘lmoqchiman. - Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida restavratsiya yo‘nalishida o‘qiyman, - deydi 4-bosqich talabasi Dinora Husanova. - Yozgi ta‘lida zamonaviy dizayn sohasini o‘rganish maqsadida ushbu markazga kelyapman. Bo‘sh vaqtimdan samarali foydalanish va o‘z kasbimni yanada chuqurroq o‘rganishga harakat qilyapman.

- Hozir dizayn sohasiga talab ortib

ketdi, - deydi M.Mamirov. - Masalan, yangi ochilgan restoran, kafe yoki oshxonalar bizdan dizayn tayyorlab berishimizni so‘raydi. Odamlar xonadonini ta‘mirlash uchun ham dizayn so‘rashyapti. Men ularga markazda ta‘lim olib, mustaqil ish boshlagan shogirdlarimni tavsiya etaman. Ularning ko‘pchiligi oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olyapti. O‘quvchilarim dasturlashga o‘tganidan keyin o‘zlari bilan noutbuk olib keladi. Chunki bu yerda o‘tilgan ikki soatlik dars uyiga borganidan keyin takrorlanmasa, yodidan ko‘tarilib ketadi.

IT markaziga kompyuter savodxonligini o‘zlashtirish uchun katta yoshdagi talabgorlar ham kelishar ekan.

- Bizdan kompyuterni o‘rganish talab etilyapti, - deydi Payariq tumani tibbiyot birlashmasiga qarashli 1-tug‘ruq birlashmasi hamshirasi Nafisa Sultonova. - Hozir hamma hujjatlar elektron shaklga o‘tdi. Hatto kasallik varaqalari ham kompyuterda yozilyapti. Shuning uchun ushbu markazga kompyuter dasturlarini o‘rganish uchun keldim.

Bugun tumanlarda ochilgan bunday markazlarning bino ijara puli va wi-fi internet to‘lovi davlat tomonidan to‘lab beriladi. Maqsad chekka hududlarda ham yoshlarning zamonaviy kasb o‘rganishga bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarini oshirishdir. Bunday imkoniyatdan qanday foydalanish yoshlarning o‘ziga bog‘liq.

Xurshida ERNAZAROVA.

Чинор экайлик...

Илгари бозорлар, ошхонаю дўконлар, йўл бўйлари дарахтлар билан қопланиб, ёз жазирамасида атрофга соя-салқинлик бериб турарди. Кейинчалик баланд, қуюқ соя берадиган чинорлар ўрнига асосан игнабаргли бута - тагидан шохлаб ўсадиган дарахтлар экилди. Қуёш айни тиккага келганда улар атрофига соя ташламайди.

Дарахтлар ҳаёт ва узок умр, омад ва бахт тимсоли бўлган. Дарахтлар асосан, барглилар ва игнабарглиларга бўлинади. Уларнинг барглилари ўзининг соя-салқини билан бизни жазирама офтобдан асрайди. Игнабарглилари эса ёзин-кишин кўм-кўк ва кўркем бўлиб туради.

Дарахтлар зарарли газни ўзига синдириб, одам ҳаёти учун зарурини ишлаб чиқаради. Барглиларидан ажралиб чикувчи ўзига хос модда эса касал килувчи микробларни ўлдирди. Буларнинг ҳаммасини одамлар билмаслиги мумкин. Лекин касал ҳам дарахт соясида ўзини яхши ҳис қилади.

Манбаларда келтирилишича, қайрағоч дарахти сершоҳ ва сербарглиги билан бизнинг табиий шароитда жуда асқот-



ган. Лекин кейинги йилларда тангадай офтоб туширмайдиган сада қайрағочлар, чинорлар ўрнига хориждан валюта ҳисобига қиммат нархда келтириладиган, иқлимга мослашиши қийин бўлган игнабаргли дарахтлар экилмоқда.

Манбаларда келтирилиши-

ча, чинор - пўсти кўкиш, пан-жасимон шапалоқ баргли, узок умрли серсоя катта дарахт. Унинг бўйи 30 метргача, катта ёшлилари танасининг диаметри бир ярим метрдан ошади.

Американинг қадимий туб аҳолиси (хиндулар) учун чинор шарбати асосий озиқ-овқат маҳсулоти бўлган. Канадада ҳозиргача чинор шарбати ишлаб чиқарилади. Поёнсиз чинорлардан иборат ўрмонлар Канаданинг фахри ҳисобланади. Бу давлатнинг байроғида чинор баргининг тасвири порлаб туриши ҳам бежиз эмас.

Мамлакатимизда чинор соғломлик, қудратлилик ва узок умр тимсоли сифатида қадрланади. Дарахтлар орасида чинорга алоҳида тўхталишимизнинг боиси шуки, унинг рамзида тўқилган мақоллар, ёзилган ҳикоялар, шеърлар ва қуйланган қўшиқларнинг аксарияти Ватан ҳақидаги буюк тушунчани аниқда бойитади.

Қандай дарахт бўлмасин, экилгани яхши. Менимча, фақат ҳазон ташламайдиган дарахтлар экишга бўлган мойиллик ва интилиш таъсирига берилмасдан, баргли ва игнабаргли дарахтлардан қайси бири афзаллиги эса экиладиган жойи ва шу жойнинг иқлим шароитига кўра аниқланиши лозим.

Тўйчи ЭСАНОВ,
меҳнат фахрийси.

СЎЗ СЕҲРИ

“Аввал сўз бўлган эди”, дейилади муқаддас китоблардан бирида. Сўзнинг инсон ҳаётидаги, қолаверса, жамият ҳамда тарихдаги аҳамияти ҳақида кўп ва ҳўб айтилган. Чунки сўз остида фикр ётади, дилдаги ният тилга чиқиб, кейин моддий-лик касб этади. Шу боис улуғларимиз тилга эҳтиёт бўлишни, оғизга келган ҳар бир сўзни, айниқса, ёмон сўзларни “фаришта омин дейди”, деган истиҳола билан гапирмасликни насиҳат қилишади.

Халқ орасида ҳам: “Бўри дема, қулоғи кўринади”, деган ҳикматли нақл бор. Бу гапнинг нақадар тўғрилигини бугун дунёда юз бераётган нохуш воқеалар мисолида яққол кўриш мумкин. Яқин Шарқдаги вазият кескинлашиб кетганидан сўнг жаҳон афкор оммаси тилида Учинчи жаҳон уруши ҳақидаги гап-сўзлар кўпайди.

Бу борада безовталаниб турган одамларга бир яхши хабарни етказиб қўймоқчиман. Айрим билгич сиёсий экспертларнинг фикрича, Учинчи жаҳон уруши аллақачон содир бўлиб, тинчликсевар кучларнинг ғалабаси билан ўтган асрнинг 91-санасида ўз якунига етган. Фақат бу уруш аввалгиларидек қайнок, қонли уруш бўлмай, номи “совуқ уруш” дея аталган. Ушбу муҳорабада Иккинчи жаҳон урушидан сўнг дунёнинг адолатсиз тақсимланганидан норози бўлган икки “титан” - АҚШ ва СССР тинч кечган рақобатга киришиб, биринчиси иккинчисининг устидан ғолиб чиқиб, тарих чиқиндиҳонасига улоқтирган. Бундан ғоят дарғазаб бўлган собиқ шўро давлатининг меросхўри мағлубият аламини ҳазм қилолмай, ХХI асрнинг 7-санасида Тўртинчи жаҳон “гибрид уруши”ни бошлаб юборди. Дастлаб унинг раҳбари Владимир Путин Мюнхен шаҳридаги анжуманда ирод қилган маърузасида дунё адолатсиз тақсимлангани, бунда Россия манфаатлари мутлақо ҳисобга олинмаганидан қаттиқ норози эканлигини изҳор қилди. Кўп ўтмай Россия ўзбошимча жияни – Гуржистонни гапга қирмагани учун қулоғидан чўзиб, бир парчасини узиб олди. “Совуқ уруш”да қозонган ғалаба шаробидан сархуш бўлиб юрган “Сем амаки” бунга эътибор бермади. “Хай, тоғаси қулоғидан чўзса чўзибди-да”, деб қўяқолди. Бундан дадиллашган тоға тўғишган укасининг қўлидан Крим яриморолини ғирт қитмирлик йўли билан тортиб олди. Бунга ҳам “Сем амаки”: “Хай, отасининг мулкига акасининг ҳам ҳақи бор”, қабилида қараб, жиддий эътибор бермади. Бепарволикдан янада руҳланган меросхўр 2022 йил 24 февраль куни очиқ босқинчилик йўлига ўтди.

Мана, Украинага қарши уруш бошланганига ҳам уч ярим йил тўлмоқда. Аммо ҳеч чек-чегараси кўринмаяпти. Уни 24 соат ичида тугатишга ваъда берган баҳодир - Трамп бобо ҳам ҳафсаласи пир бўлди шекили, кейинги кунларда бу мавзуда гапиришни унча ҳушламаяпти. Яқинда Трамп билан бўлиб ўтган телефон суҳбатида Владимир Путин урушни тўхтатиш нияти йўқлигини очик билдирди. Рамзлар билан айтадиган бўлсак, “Келишув санъати” китобини ёзган муаллифга Путин “Уруш санъати” бўйича мастер-класс ўтказди. Воқеани ўз номи билан атайдиган бўлсак, Трампнинг тинчликсеварлигига Путин очикчасига тупурди. Буни шундан билиб олиш мумкинки, айнан ана шу суҳбатдан кейин Россия армияси Украинадаги тинч шаҳарлар устига аввалгидан ҳам кўпроқ ракета ва бомба ёғдирди. Бунинг устига Исроил билан Эрон ҳам Ер курасининг оқсоқоли, шу кунгача буюк, олиймақом, чиройли, мўъжизакор, даҳшатли, мафтункор ғалабаларга эришиб келган Дональд бобонинг гапига кўнмаяпти. Ҳозирча сўзи икки бўлаётганидан хафа бўлаётган бизнесмен ва шоумен Дональд Трамп уларга оғзаки норозилик изҳор қилиш билан чекланмоқда. Тўғри, у Эрон мулаларига қалтагини бир ўқталиб қўйди. Аммо бу тескари натижа бериб, Исроил узра қора булутларни янада қуюқлаштирди.

“Yevroosiyo yuragiga sayohat” ekspeditsiyasi a’zolari Samarqandda

Mazkur ekspeditsiya a’zolari 6-iyun kuni Moskva shahridan avtomobillarda yo’lga chiqib, kuni kecha Samarqand shahriga yetib keldi. Yuzga yaqin ekspeditsiya a’zolari orasida ommaviy axborot vositalari vakillari, blogerlar, olimlar, tadbirkorlar va boshqa soha vakillari bor. Viloyat turizm boshqarmasi vakillari mehmonlarni kutib olib, dastavval ularni Bulung’ur tumanidagi Fozil Yo’ldosh uy-muzeyi, shu yerda ijod qilayotgan “Chavqi” folklor-etnografik ansambli faoliyati bilan tanishtirdi.

- Avval Rossiyadagi bir qator hududlar, keyin Qozog’iston, Qirg’iziston davlatlarida bo’ldik, - deydi “Evroosiyo yuragiga sayohat” tashkiliy qo’mitasi vakili Alena Lupina. – Kecha Toshkentdan Samarqandga keldik va bu yerdagi qator madaniy yodgorliklar bilan tanishdik, qishloq turmush tarzini kuzatdik. Endi Buxoroga, undan keyin Tojikistonga borishni rejalashtirganmiz. Tojikistonda birinchi Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy forumida qatnashamiz. Aytish kerakki, mazkur ekspeditsiya faqat sayohatdan iborat emas. Unda davlatlararo madaniy, ilmiy, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash va uning doirasida turli anjumanlarni o’tkazish ham ko’zda tutilgan. Lina Dianova rossiyalik oilaviy psixolog, youtube tarmog’ida 600 mingga yaqin obunachilari mavjud bo’lib, qishqishlari millionlab marotaba ko’riladigan kontentga ega blogger. - Samarqandda, O’zbekistonda birinchi marta bo’lishim va bu yerdagi samimiylk meni maftun etdi, - deydi Lina biz bilan suhbatda. – Odamlardagi mehmondo’stlik fazilati sezilib turibdi. Bu odamlar, hayot tobora individuallashib ketayotgan bir paytda muhim qadriyatlardan biri. - Sayohat qilish asosiy xobbim bo’lgani tufayli, qaerga borsam u yerdagi o’ziga xosliklarni video shaklida taqdim eta boshladim va o’z auditoriyamga ega bo’ldim, - deydi Nadejda Pronova. – Ilgari asosan Yevropa davlatlari haqida videolar tayyorlaganman. Ushbu ekspeditsiya davomida to’g’risi, hali Rossiyaning o’zida ham qanchadan-qancha chiroyli va tarixiy joylar haqida bilmasligimni bildim. Markaziy Osiyo mamlakatlardagi tarixiylik esa har qanday sayohatchi uchun qiziq, deb o’ylayman. Ayniqsa, Bulung’urdagi folklor ansamblining chiqishlaridan zavqlandim. Ekspeditsiya a’zolari muazzam Registon maydonida jam bo’lishganda, ularga milliyligimiz ramzi bo’lgan do’ppilar tarqatildi.

Gulrux MO’MINOVA.



ТЎНКАРИЛГАН ТОШБАҚАЛАР

Бир қарашда тошбақалар ғоят ҳоксор ва вазмин жони-вор бўлиб кўринса-да, баъзан қанақадир сабабларга кўра бир-бири билан жанжаллашиб қолар экан. Бунда улар гарчанд рақибига жисмоний жароҳат етказса олмаса-да, бир-бирини ағдариб, оёғини осмондан қилишга уринар экан. Чунки тошбақалар учун тўнкарилиш ўлим билан баробар. Кураги ерга теккан тошбақалардан ўта бақувватларигина камдан-кам ҳолларда ўзини ўнглаб, ҳаётини сақлаб қола билади. Аксарияти шу тарика азобли ва даҳшатли ўлимга маҳкум бўлар ёки гўштрўр ўзга жонзотларга қосага сузилган тайёр таомга айланаркан. Энг ёмони, тўнкарилган тақдирда уни юз йиллар давомида ҳимоя қилиши лозим бўлган тошқосаси қаттол ажалига айланаркан.

Биз, қаламқашлар ҳаёт ҳақиқатларини рамзлар воситасида тасвирлашни ҳуш кўрамыз. Шу маънода, мен ҳам дунё воқеаларини таҳлил қилиш давомида ўхшаш рамзларни кўраман. Айтайлик, собиқ СССРнинг тошқосаси Коммунистик партия эди ва унинг муҳим мақоми мамлакат конституциясининг 6-моддасида қатъий муҳрлаб қўйилганди. Нима бўлди-ю, салтанат тўнкарилиб, тошқосаси унинг ажалига айланди. Иттифоқ тарқалганида 18 миллионлик партия аъзоларидан бирортаси ҳам бунга қарши чиқиб, кўксини қалқон қилмади ва коммунистик фирқа шунчаки, кераксиз тошга айлангани маълум бўлди. Нега десангиз, юқоридан бериладиган буйруқни бажаришга одатланиб қолган бюрократик партия аппарати буйруқ келишини кутиб, давлат пароканда бўлганини сезмай ҳам қолди. Адолат юзасидан айтадиган бўлсак, СССРни буён ётган, ривожлантирган, даҳшатли урушда ғалабага илҳомлан-тирган куч Коммунистик партия ва унинг ғоялари эди. Коммунистик империя тўнкарилиб, кураги ерга теккан, уни йиллар давомида ҳимоя қилиб келган тошқосаси қаттол ажалга айлан-ди. Барча муваффақиятсизликлар камчиликлар партияга, Ленинга, Сталинга ёпиштирилди. Тўғри, кейинги пайтларда Россияда Сталин номи бироз оқланмоқда. Сабаби, у урушда қаттиққўллик билан ғалаба қилиб, империяни кенгайтиргани рус шовинистларининг дунёқараши билан ҳамоҳанг келиб қолди. Бугун россиялик коммунистлар унинг тўлиқ оқланиши-ни талаб қилмоқда. Империалистик чор Россиясининг бошига етган “юмшоқ ва аҳмоқ” Ленинни эса гўрдан олиб гўрга солиш рус миллатчилари учун қундалик одагга айланди.

Шу мазмундан келиб чиқадиган бўлсак, иккинчи бир

буюк империя - АҚШнинг ҳам тошқосаси бор. Бу аввало, Американинг пойдеворини қўйган Конституцияси, демократия, инсон озодлиги ва ҳуқуқларини таъминлаб турган қонун устуворлиги белгилаб қўйилган тамойиллардир. Президент Трамп томонидан ушбу тартиб-қоидаларнинг оёқ ости қилинаётгани АҚШни ҳам тўнкариб қўйиши мумкин. Бу АҚШдаги ҳокимиятлар тақсимотининг бузилишида яққол кўринмоқда. Ихро ҳокимияти судьяларга ҳукм ўтказмоқда, президент Трамп ўзини Сенат ва Конгрессдан устун қўймоқда. Айтайлик, собиқ президент Байден даврида Конгресс қабул қилган қарорлар бажарилмаяпти. Буни биз Украинага бериладиган ёрдамнинг тўхтатилишида кўрдик. Трамп буни Америка иқтисодиётига зарар келтирувчи аҳмоқона қарор деб атади. Бизнесмендан чиққан содда президент агар Украина бой берилса, иқтисодиётга ва умуман, Американинг ўзига ҳам жиддий хатар пайдо бўлишини билмаяпти ёки билса ҳам билмасликка олмақда.

АҚШ дунё лидерлигига айнан инсон эрки, озодлиги ва ҳуқуқлари ҳимоячиси сифатида эришиб, обрў қозонганлиги тарихдан маълум. Тимсол билан айтадиган бўлсак, ушбу қадриятлар АҚШнинг таянч устунларига ўхшайди. Бу устунларсиз Америка империяси, шубҳасиз, ҳалоқатга юз тутиши мукаррар. Аввалги мақолаларимизда айтганимиздек, яхшиямки, АҚШ қонунлари президент ҳокимиятини тўрт йиллик муддат билан чеклаб қўйибди. Бу тамойилнинг бузилиши эса Американинг чинакам фожияси бўлиши аниқ. Шу маънода, барча элларнинг ҳам ўзига ҳос ҳимоя таянчлари мавжуд, деб ўйлайман. Масалан, Россия кўп миллатли бўлгани учун унинг таянчи - халқлар дўстлиги.

Хитойники эса жадал ривожланиб бораётганлиги боис - фан ва технологиялар, эроникларники - дин, биз, ўзбекларнинг ҳимоя воситамиз - меҳнатсеварлигимиз ва болажонлигимизда. Агар ота-оналаримиз бизни дунёга келтириб, кўпайтириб қўйишмаганида эди, наинки, Ўзбекистоннинг, балки бутун Марказий Осиё республикаларининг мустақиллиги ва тараққиёти хатар остида қолган бўларди. Шу маънода, ўзбекларнинг кўпайиб, эллик миллионли буюк миллатга айланиши сабабчиси бўлган мунис ва мўстабар ота-оналаримиз пойига бош эгиб, таъзим қилсар аяғиди. Шу мазмундан келиб чиқадиган бўлсак, келажақда юқоридида тилга олганимиз таянч воситаларнинг иложи борича барчасига эриша олган халқларгина жадал раванқ топади.

Соҳага қаратилган эътибор шу йил ёз фаслида айниқса, яққол намоён бўлди. Ёзги болалар оромгоҳлари-га боришни истовчи кўплигидан ҳатто баъзиларига ҳақи топа олмай қолиш ҳолатлари кузатилди. Яхши биламиз, узоқ йиллар давомида ёзги оромгоҳлар эски тартиб ва шаклда иш олиб борар, унда дам олиш учун ота-оналар фарзандларини жўнатмай қўйганди. Баъзи ёзги оромгоҳлар эса ташландиқ бир аҳволга келиб қолгани ҳам ҳақиқат. Кейинги йилларда ушбу тармоқ тўлиғича қасаба уюшмалари тизими-га ўтиши тўфайли эътиборга тушадиган ўзгаришлар кузатилди.

Самарқанд вилоятида бир пайтлар 40 га яқин ёзги болалар оромгоҳлари мавжуд бўлгани ҳолда уларнинг санокли-сигна ўз фаолиятини давом эттира олди. Табиийки, барчаси маблар билан боғлиқ. Айни пайтда уларнинг ўнтаси ўз фаолиятини янгича тартиб ва шаклда давом эттирмоқда.

Вилоят Матбуот уйида Ўзбекистон қасаба уюшмалари федерацияси вилоят кенгаши раҳбари Сўхроб Рафиқов ишти-рокида ўтказилган матбуот анжуманида ёзги оромгоҳлар, санаторийлар бўйича янгиликлар, соҳада олиб борилаётган ўзгаришлар хусусида маълумот берилди. -Ўзбекистон қасаба уюшмалари Федерацияси томонидан янги санаторий-

ларни қуриш, мавжудларида дам олув-чилар учун шароитларни тубдан яхши-лаш, ўринлар сонини ошириш бери-сида олиб бориладиган ишлар бугунга келиб, ўз натижасини бермоқда, - деди С.Рафиқов анжуман иштирокчиларига. - Хусусан, 2016 йилда тизимда 17 та санаторий ва 2 та дам олиш уйи фаолият юритган бўлса, бугунги кунда 31 та санаторий фаолият юритиб, уларда 7185 та ўрин дам олувчи-лар учун хизмат қилиб келмоқда.

Жумладан, 2020-2024 йилларда 7 та янги – “Янгиер”, “Кўхнур”, “Хўжайпоқ”, “Чинобод плаза”, “Сангардак”, “Заркент”, “Севарсой” санаторийлари қурилиб фойдаланишга топширилди, 8 та сана-торийда замонавий ётоқ, даволаш ва ошхона, даволаш биноларини қуриш ва реконструкция қилиш, жиҳозлаш ишлари амалга оширилди.

Ўзбекистон қасаба уюшмалари Феде-рациясининг Самарқанд вилояти кенга-ши томонидан 2025 йил давомида жами 6200 нафар ходимни соғломлаштириш белгиланган. Жорий йилнинг ўтган 6 ойи давомида 2523 нафар ишчи-ҳодим ва уларнинг оила аъзолари соғломлашти-рилди.

Ўзбекистон қасаба уюшмалари Фе-дерациясининг дастури асосида фойда-

Улардан чекиниб, тескари ҳаракат қилганлари эса тобора янги муаммоларга дуч келаверади.

Айтайлик, Эрон ислом давлати сифатида тинчликсевар мамлакат бўлиши лозим эди. Чунки ислом аввало, тинчлик, хотиржамлик деган маъноларни англатади. Исроилликлар эса фашистлар томонидан таҳқирланган миллат сифатида бошқа халқларга ўта раҳмдил ва меҳрибон бўлмоғи жоиз эди. Улар аксинча, фаластинликларга зулм ўтказиб, ўз тошқосаларини тўнкариб қўйишди. Оқибатда иккинчи бир рақиблари ғазабига дучор бўлмоқда. Тўғри, дунёда кечаётган воқеаларни бундай бир томонлама жўн тасаввур этиш балки ўринли эмасдир. Негаки, ҳар бир ҳодисанинг минглаб сабаблари бўлиши мумкин. Аммо улар орасида албатта, бир-иккитаси устувор бўлади.

ТРАМППОШШО

Дунёда кечаётган кейинги воқеалар тўфайли айрим жами-ятлар ўзини ҳимоя қилиб турган қадриятларини оёқ ости қи-лаётгани боис турли кўнглисизликлар билан юзма-юз бўляпти. Айтайлик, АҚШ президенти Дональд Трампнинг ўзбошимчалик билан қабул қилган нодемократик қарорлари оқибатида ҳар турли сиёсий-иқтисодий ва ижтимоий мушкулликлар юзга келди. Масалан, унинг кейинги кунларда чиқарган, ўзининг айтиши бўйича, “солиқлар тўғрисидаги гўзал ва қойилмақом қарорлари”дан норизо бўлган миллиардер Илон Маск ўзининг “Америка” номи янги сиёсий партиясини таъсис этди. Ушу партия кейинги сайловларда миллионлаб республикачиларни ўз томонига оғдириб олиши мукаррар. Бу эса Трамп тўрнинг тагига сув қуйилганини англатади. Шу йил июн ойида АҚШда-ги “Associated Press” - NORC ахборот агентлиги томонидан ўтказилган сўровномага кўра, америкаликларнинг тўртдан бир қисмигина Трампнинг президентлик фаолиятини маъқула-лаётганини кўрсатди. Аксарият фуқаролар АҚШ армиясининг 250 йиллиги муносабати билан ўтказилган тантанали ҳарбий парадни “давлат маблағларидан самарасиз фойдаланиш”, дея баҳолаган. Маълумки, президент Трамп 2025 йил январь ойида давлат харажатларини қисқартириш сиёсати доирасида тўқсон кун давомида USAID томонидан хорижий давлатларга кўрсатиладиган ёрдамни музлатиб қўйганди. USAID фаолияти АҚШ Давлат департаменти назорати-га ўтказилди ва бу билан Вашингтон USAID дастурларининг 83 фоизини бекор қилгани маълум бўлди. Ҳолбуки, ушбу дастур асосида дунёдаги қаш-шоқ мамлакатларга берилган ёрдам у жойларда тиббиёт ва таълим сифатини ошириш учун катта мадад бера-р, шу орқали Американинг жаҳондаги нуфузи йилдан йилга кўтарилиб бо-рарди. Бюджет маблағини тежаш учун халқро инсонпарвар-лик ёрдамини қийиб, уни тантанавор парадга совириб юбориш қайси мантқиқга тўғри келиши кўпчилик учун жавобсиз бир жумбоққа айланди. Трампнинг бундан бошқа ажабтовур сиё-сий-иқтисодий қарорлари ҳам бугунги кунда ўзининг нохуш натижаларини пайдо қилмоқда. “The New York times” газетаси берган маълумотларга қараганда, АҚШ долларини ўтган ярим йил ичида 10 фоиз қадрсизланган. Бундай салбий ҳолат 1973 йилдан буён кузатилмаганидан, деб ёзади газета. Буларнинг барчаси Трамп ҳокимият тепасига келган ярим йил мобайни-да содир бўлгани америкаликларни жиддий ташвишлантир-моқда. Биз учун эса ҳаммасидан ҳам нохуш хабар: “Политико” нашрининг ёзишча, Трамп Украина урушини тўхтата олишига ишончи қомил эмаслигини айтган.

Ҳолбуки, у сайловлди чиқишларидан бирида урушга 24 соат ичида чек қўйишга ваъда берганди.

Мақолани сўз ва унинг қадри ҳақидаги гаплар билан бошлагандик. Афтидан, сўз бериш ва сўзида тура олмаслик иллати сиёсий арбоблар орасида кенг тарқалган удумга айланганга ўхшайди.

**Худойберди КОМИЛОВ,
сиёсий шарҳловчи.**

Иссиқкўлда Ўзбекистон санаторийси иш бошлади

ларни қуриш, мавжудларида дам олув-чилар учун шароитларни тубдан яхши-лаш, ўринлар сонини ошириш бери-сида олиб бориладиган ишлар бугунга келиб, ўз натижасини бермоқда, - деди С.Рафиқов анжуман иштирокчиларига. - Хусусан, 2016 йилда тизимда 17 та санаторий ва 2 та дам олиш уйи фаолият юритган бўлса, бугунги кунда 31 та санаторий фаолият юритиб, уларда 7185 та ўрин дам олувчи-лар учун хизмат қилиб келмоқда.

Жумладан, 2020-2024 йилларда 7 та янги – “Янгиер”, “Кўхнур”, “Хўжайпоқ”, “Чинобод плаза”, “Сангардак”, “Заркент”, “Севарсой” санаторийлари қурилиб фойдаланишга топширилди, 8 та сана-торийда замонавий ётоқ, даволаш ва ошхона, даволаш биноларини қуриш ва реконструкция қилиш, жиҳозлаш ишлари амалга оширилди.

Ўзбекистон қасаба уюшмалари Феде-рациясининг Самарқанд вилояти кенга-ши томонидан 2025 йил давомида жами 6200 нафар ходимни соғломлаштириш белгиланган. Жорий йилнинг ўтган 6 ойи давомида 2523 нафар ишчи-ҳодим ва уларнинг оила аъзолари соғломлашти-рилди.

Ўзбекистон қасаба уюшмалари Фе-дерациясининг дастури асосида фойда-

ланилган санаторий йўлланмаларининг 92 таси ишловчи меҳнат фахрийлари, байналиминалчи жангчилар, чернобилчи-лар, олис ва чекка ҳудудларда яшовчи фарзандталаб ёш оила вакиллари ҳамда ижтимоий ҳимояга муҳтож оилаларнинг ишловчи вакиллари-га бепул берилди.

Маълумот ўрнида кейинги 5 йил давомида вилоят бўйича 24259 нафар ишчи-ҳодим ва уларнинг оила аъзолари қасаба уюшмалари тизимидаги турли санаторийларда соғломлаштирилишига эришилди.

Маълум бўлишича, қасаба уюшма-си аъзоси бўлмаган, ижтимоий ҳимоя-га муҳтож шахслар маълум имтиёзлар асосида санаторийларга йўлланма олиш учун бугунги кунда “Инсон” ижтимоий хизматлар марказининг жойлардаги бў-лимларига мурожаат этиши лозим.

Яна бир муҳим янгиликлардан бири – Қирғизистон республикасидаги Иссиккўл ҳудудида мамлакатимизга тегишли бўлган санаторий очилди. Энди қасаба уюшмаси аъзолари унда ҳам имтиёзли шартларда дам олиш имконига эга.

Анжуман давомида журналистлар мазкур масалалар бўйича ўзларини қи-зиқтирган саволларга жавоб олдилар.

Г.КОМИЛОВА.

РЕКЛАМА, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Abdixakimov Ziyadullaga (2024-yil 14-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqloq ko'chasi, 73-uy.

**** ***

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nishonova Umida Ismatilayevna notarial idorasida marhum Xalilov Axadga (2011-yil 2-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nishonova Umida Ismatilayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 132-uy, 2-xona.

**** ***

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar marhum Baxriyev Batirga (2020-yil 6-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

**** ***

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar marhum Salaxitdinov Baxriddaga (2024-yil 2-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

**** ***

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Maxmudov Sobirga (1993-yil 29-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.

**** ***

BEKOR QILINADI

Payariq tumanidagi “KASTER OBOOD O'LKA YAYLOV YERLARI” mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 310783209) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

**** ***

Oqdaryo tumanidagi “YUNON PHARM” mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 306510151) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.



Мулоҳаза учун мавзу



Har ne‘matning uvoli bor

Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatayotgani, qaysi xalq tejamkor, uddaburon, shukrli bo‘lsa, farovon turmush kechiradi. Aslida yurtidagi tinchlikning, chiqib turgan Quyoshning, yonib turgan ko‘ngilning, pishib turgan ne‘matlarning ham qadri bor. Bu qadрни tushunmaslik, ya‘ni noshukurchilik va isrofgarchilik Yaratganga ham yoqmaydi.

Bu gaplar yangilik emas, bu haqda ko‘p yozyap-miz, ko‘p gapiryapmiz, lekin ba‘zi hollarda teskari natijani ko‘rib, hafsalam pir bo‘ladi. Ochig‘ini aytсам, yo‘l yoqalaridagi hil-hil pishib turgan mevalarni nazarda tutayman. Bobom rahmatlik bir paytlar Samarqand shahrida ikki yil qatorasiga daraxtlar meva solmagani qattiq qahatchilikka olib kelganini aytardi.

Biz to‘kin davrda yashayapmiz. Noz-ne‘matlarni uyingizga keltirib beradigan xizmatlar bisyor. Buning ustiga yurtimizga bahor yaxshi keldi, hech bir mevaning sovuq urmadi, shuning uchun shaharning qaysi ko‘chasi bormang, ko‘chalari, darvozalar oldida hosilini ko‘tara olmay turgan daraxtlarga ko‘zingiz tushadi. Buning uchun shukr qilishimiz kerak. Mevasi pishib, yerga tushib, yer bilan yakson bo‘lib turgan bir vaqtda, shu yaqin orada bemaol-gina subhat qurib o‘tirib olgan katta yoshli kishilarga ko‘zim tushganda, dilim yanada xiralashadi.

Rahmatli momom ana shunday paytda hashar qilib, ko‘chadagi daraxtlarning mevasini terdirib, yerga tushib isrof bo‘lishiga yo‘l qo‘ymasdi, mi-skinroq oilaga murabbo qilib berardi, quritib, qoqi qilardi. Hayronman, biz ana shunday tejamkor, shukrli el farzandi bo‘lsak-da, bugun pishib yetil-gan noz-ne‘matlarga hurmatsizlik qilmayapmizmi? To‘ylarda iste‘mol qilinmay qolib ketgan taomlardek, uyimiz oldidagi daraxtlardagi mevalar to‘kilib, yer bilan bitta bo‘lib qolyapti. Na katta yoshdagi kishilar, na hoji ona va hoji otalar, hech kim bir-biriga e‘tiroz bildirmaydi. Mahalla raislari-chi? Ular shu yaqin atrofda yashaydigan, har kuni ko‘chaga chiqqanida ko‘zi tushadigan, oyoqosti bo‘layotgan zardoliyu ol-malar, olchalarni ko‘rib, nahotki biror bir gap aytish-

ga jur‘at etmasa. Vaholanki, aynan shu mevalarni ular ham do‘konlardan keltirib yeyishyapti.

Shu o‘rinda bir misol keltirishni joyiz ko‘rdim. Turkiyada safarda bo‘lgan chog‘imda uyalar, hov-lilar yonlari, ko‘cha yoqalari va hatto xiyobonlarga tutash ko‘chalarda apelsin, xurmo mevasi, banan, zaytun va yana ko‘plab ne‘matlarning pishib yotgani guvohi bo‘ldim. Biror bir joyda u yerda yashaydigan odamlar tosh o‘tib, tushirishga harakat qilganini, ne‘matlarning yerda isrof bo‘lganini ko‘rmadim. Mevalar shundoqqina “o‘z holicha” pishgach, terib olinib, yaqin atrofda yashaydigan odamlarga bo‘lib berilar ekan.

Zaytunning yog‘gacha bo‘lgan “sayohat”i esa yana bir noyob an‘ana ekan. Kuz kelishi bi-lan o‘rim-yig‘imdan so‘ng zaytun mevalari darhol mahalliy tegirmonlarga yuboriladi, ular xizmat haqi evaziga yuqori sifatli zaytun moyini ishlab chiqarish uchun presslab, maxsus idishlarga solib, egalarga qaytarib berishdi. Zaytun yig‘ishning bu qadimi-y an‘anasi oilalar, jamoalar va mehmonlarni madani-yat va xo‘randalikning ajralmas qismi bo‘lmish ko‘p asrlik udumlarda ishtirok etish orqali birlashtiradi.

O‘zimizda ham shunga o‘xshash odatlar bo‘lardi. Bolalagimda mahallada yashab yurgan paytlarimizda qo‘shnilar bilan ko‘chaga katta choyshabni ko‘tarib chiqardik. Pastda turib, to‘rt tomonidan ushlardik. Bir kishi daraxt tepasiga chiqib, tut qoqardi. So‘nggi yillarda ko‘chalarda bunday holatni juda kam uchrasiz yoki umuman yo‘q bo‘lib ketgan. Go‘yo odamlar bunday ovoragarchilikdan o‘zini olib qochayotgandek. Mabodo bizda ham shunday an‘analari tiklanib, yo‘lga qo‘yilsa, ne‘matlar uvoli bo‘lmasmide?

Bahora MUHAMMADIYEVA.



Сарғайган суратлар

Кутубхонадаги эски китобни кўздан кечираётганимда тасодифан унинг орасидан раҳматли акам иккаламиз ўша давр удумига кўра тўн кийиб тушган суратимизни топиб олдим. Отам раҳматлик сурат олинган кунни расм орқасига ёзиб қўйган экан: 1961 йил 2 май. Улус қишлоғи.

Отам ўша пайтлари шу қишлоқда-ги мактаб директори бўлиб ишлар, баъзан байрам кунлари, айрим пайтла-ри мактаб ўқитувчисига ўқувчиларини суратга тушириш учун Каттақўрғон шаҳридан таниши бўлган яхудиё сураткаши чакиртириб турарди. Бу суратни ҳам уйимизда шу киши олгани аниқ. Орадан олтимиш тўрт йил вақт ўтибди. Бу суратга тикилиб, нималарни эсламадим, дейсиз. Биринчи синфни шу қишлоқ мактабда битирганимни, уйимиз орқасидаги қирларда акам иккаламиз қўй боқганимиз, мактабда ўқитувчи бўлган, лекин жуда ёшли-гимизда вафот этиб кетган онамни, бизларни бағрида ардоқлаб ўстирган, ўзи саводсиз бўлса-да, лекин доим ўқиш кераклигини қўлоғимга қўйган катта онамни, яна қанча-қанча одамла-рун воқеаларни ёдимга солди бу сурат. Шунда бир нарасага амин бўлдимки, инсон умрининг қандайдир лаҳзаси акс эттирилган ҳар бир сурат вақти келиб, инсон хотирасидан ўчиб кетаётган воқеаларни, азиз чеҳраларни жонлан-тиришга қодир экан...

Бир кун ишдан қайтаётиб, чиқин-ди ташланадиган жойга кичик кутига солинган қоғоз ва суратларни ирги-таётган болага кўзим тушди. Аввали-

га хаёлларим билан бўлиб, эътибор бермагандим. Лекин шу пайт эсиб турган шомол уларни ҳар томонга со-чиб юборди. Оёқ остида тўзғиб ётган, йиллар ўтиши билан сарғайиб кетган суратлар, дафтар varaқларига кўзим тушгач, беихтиёр энгашиб, бир нечта-сини йиғиштириб олдим. Булар турли вақтларда туширилган, ёшлари ҳар хил одамларнинг суратлари эди. Уларга қарар эканман, негадир юрагим увишиб кетди. Кўпи 1940-1950-йилларнинг суратхоналарида олинган.... Орадан 70-80 йилдан зиёд вақт ўтибди. Бу одамларнинг кўпчилиги энди йўқ. Улар ким бўлишмасин, вақти келиб, қайси бир авлоди бефарқлик билан ёки аниқроғи, бефаросатлик билан бобою буvisи ёки амаки, тоға-аммаси — хуллас яқин кишиларининг хотира-сини топташи мумкинлигини тасаввур қилишганимкан?

Одатда ҳеч бир киши ёмон кунда суратга тушишни хаёлига келтирмай-ди. Яқин қариндошлар ёки ёру биро-дарлар суратга тушаётганида “Яхши дамлардан эсдалик-да”, дейишади. Демак, инсонларнинг хушнуд дама-ларидан қолган. Вақт ўтиши билан инсон қалбидаги хотираларни кўзгоччи бир акс-садога айланган. Йиллар кечган

сайин бу садони тез-тез тинглагинг келади. Чунки инсон табияти шу — нима-ни йўқотса, шуни кўпроқ кўмсайди...

Лекин чиқиндихонага аждодлари-дан қолган хотиранинг бир бўлагини улоқтираётган йигит буни тушунар-микан? Йўқ, ҳали тушунмайди, эҳти-мол ота-онасидан бу ҳақда ҳеч нарсa эшитмаган.

Бир воқеани эслайман. Ўша пайт-лар 26-27 ёшларда эдим. Маърақа-да танишим билан учрашиб қолдим. Иккаламиз бирга қайтдик. Йўлда кўп вақтдан буён акаси тушларига кириб чиқишини, лекин урушда, 22 ёшида ҳалок бўлган оғасидан нафақат зур-риёт, хатто бир донa сурат ҳам қолма-ганлигини афсусланиб сўзлаб берди: “Ҳеч бўлмаса, суратига қараб, болала-рим амакисини эслаб юришарди”. Бу гапларни у чуқур армон билан айтди. Шу топда акасининг бир донa сурати топила, унинг юрагини ўртаб юрган айрилиқ азоби оз бўлса-да, чекиниши аниқ эди. Афсуски, бу армон унинг ҳам кўксига кетди...

Сарғайган суратларнинг турли ноўрин жойларда ётганини кўрга-нимда, хафа бўлиб кетаман. Оилавий фотоальбомларда авайлаб сақланиши, набиралар, эвара, чевараларга аждод-ларидан ҳикоялар сўзловчи, хотирала-рини жонлантириб турувчи сарғайган суратларни кўчага, чиқиндихоналарга улоқтираётган одамларнинг ўз авлоди тарихининг бир қисмини тамоман ўчи-раётганига ақли етармикан, деб ўйлаб қоламан.

Музаффар МУКИМОВ.

БОРОДУР

Бир бирини қувлашиб, кунлар ўтиб бородур,
Сирларини сирлашиб, тунлар ўтиб бородур.

Тонг отар ва кун ботар, кўзни юмиб очгунча,
Хиргойиси хир-хирлаб, умри битиб бордур.

Тутқич бермай хаёллар, беҳисоб, о, саволлар,
Алик кутган саломлар дилни ситиб бородур.

Кўнгилга гул эмокқа хоҳиш бору амал йўқ,
Ҳайрон бўлиб ҳайрати карвон кетиб бородур.

Ҳақлигига талашиб, ёқа вайрон қанча, бок,
Ғаним бўлса, харидор, дўстлар сотиб бородур.

Эй Сунондик, огоҳ бўл, умр беҳуд тўқилмай,
Фурсатни ким бой берса, ёқа тутиб бордур.
Сунондик ҳожи Мустафо НУРАТОЙ.

Kofirqal’adan 25 yilda nimalar topildi?

Kofirqal’a yodgorligi Darg’om kanalining chap qirg’og’ida, Afrosiyobning janubiy tomonida, Samarqand shahridan 18 kilometr uzoqlikda joylashgan. Milodning VII-VIII asrlarida Samarqand hukmdorlarining yozgi qarorgohi bo‘lgan ushbu arxeologiya obyekti arab istilosi davrida vayron qilinib, yoqib yuborilgan.

Yodgorlikda 1991-yilda Y.G’ulomov nomidagi arxeologiya institutining arxeologik otryadi tomonidan dastlabki qazishma ishlari boshlangan. 2001-yildan O‘zbekiston-Italiya hamda keyingi yillarda O‘zbekiston-Yaponiya xalqaro qo‘shma ekspeditsiyalari hamkorlikda tadqiqotlar olib bormoqda.

Samarqand shahridagi O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyida Kofirqal’a yodgorligi majmua-sida 25 yil davomida amalga oshirilgan arxeologik qazishma ishlari taqdimotiga bag‘ishlangan tadbirda o‘zbekistonlik va italyalik arxeolog olimlar tomonidan yodgorlikdan topilgan ashyolarning ahamiyati haqida gapirildi.

Kofirqal’ada o‘zbekistonlik olimlar bilan hamkorlikda olib borgan tadqiqotlarimiz davomida nafaqat Samar-



qand yoki O‘zbekiston, balki o‘sha davrda Yevropaning muhim davlati hisoblangan Vizantiya, Xitoy va Hindiston tarixiga oid ashyolar topildi, - deydi O‘zbekiston-Italiya qo‘shma arxeologik ekspeditsiyasi rahbari Semione Montelleni. — Jumladan, turli davrlarga tegishli qadimiy buyumlar, hukmdorlar nomalariga yopishtirilgan yelim muhrlar, bronza, kumush, oltin tangalar hamda boshqa har xil ashyolar topishga erishdik. Bu shundan dalolat beradiki, bundan 1,5 ming yil muqaddam Kofirqal’ada joylashgan Samarqand hukmdori saroyiga turli mam-lakatlardan elchilar, savdogarlar kelib turishgan, savdo va madaniy aloqalar yaxshi yo‘lga qo‘yilgan.

Kofirqal’a shaharchasi mahobati, me‘morchilik ye-chimlari bilan Buxoro hukmdorlarining qarorgohi - Varax-sha yodgorligiga juda o‘xshaydi. X asrda Samarqandga kelgan arab geografi Ibn Xavqalning yozishicha, Samar-qand hukmdorlarining shahar chekkasidagi qarorgohi Riv-dad degan manzilda bo‘lgan. Sayyoh bu yerga tashrif buyurganida Rivdad anchayin xaroba holda yotgan. Xitoy yilnomalarida keltirilishicha, Samarqand hukmdorlari bu yerga kelib, Navro‘z va Mehrjon bayramlarini nishon-laganlar. Bunday bayramlarda hukmdorga qimmatbaho sovg‘a-salomlar in‘om etilgan.

- Qadimiy shaharning umumiy maydoni 16 gektar bo‘lib, ark, shahriston va rabotdan iborat, - deydi Sa-marqand arxeologiya instituti yetakchi ilmiy xodimi, tarix fanlari nomzodi Amriddin Berdimurodov. — Yodgorlikda saqlangan madaniy qatlamlar asosan uch davrga - birin-



chi davr VII-VIII asrlarga, ikkinchi davr VIII asrning ikkin-chi yarmiga, uchinchi davr X-XII asrlarga oid. Kofirqal’a arkining birinchi qurilish davrini qazish paytida ko‘plab noyob osori-atiqalar qo‘lga kiritildi. Shulardan biri loydan yasalgan bullalardir (bulla – muhr, hukmdor yoki amaldor muhrining loydagi nusxasi). Bullalar o‘ta noyob arxeo-logik topilma bo‘lib, odatda hukmdor yoki yirik amal-dorlarga aloqador yodgorliklarda uchraydi. Bu yerdan topilgan yig‘och panno esa Sug‘d san’atining noyob namunasi hisoblanadi. Panno ikkita keng va qalin taxtani temir mixlar bilan o‘zaro birlashtirishdan hosil bo‘lgan. Panningning sirtida har xil liboslarda, qo‘llariga turli xil as-boblar, buyumlar va sovg‘a-salomlar ushlab olgan yuzlab odamlarning shakllari o‘yib ishlangan. Ushbu kompozitsi-yaning asosiy suyujeti ma‘budaga sig‘inish, sovg‘a-salom-lar ehson qilish sahnasidan iborat.

Ayni paytda yodgorlikdan topilgan qadimiy devorlar va tarixiy ashyolarni asl holatda saqlash, davrini to‘liq aniqlash va tadqiq qilish jarayonlari davom etmoqda.

F.RO‘ZIBOYEV.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 13 821 nusxada chop etildi. Buyurtma 343. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E‘LONLAR: (66) 233-91-56

BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G‘.HASANOV.

Navbatchi:

T.SIDDIQOV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

